

## “SABZI (DAUCUS CAROTA) NAV VA DURAGAYLARINI TO‘QSONBOSTI USULIDA YETISHTIRISHNING AYRIM ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH”

**Maxamadaliyev Muhammadsodiq Iqboljon o‘g‘li**  
**G‘ulomova Muattar Muzaffar qizi**  
**Arzibayeva Sevara Boburjon qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolamizda sabzining to‘qsonbosti nav va duragaylarini to‘qsonbosti usulida yetishtirib ayrim elementlarini ishlab chiqish va yuqori hosil beradigan nav sifatida joriy qilishdan iborat. Bunda variantlar har xil ekish usullarida ekilib qator oralariga alohida e‘tibor beriladi. Yuqori natija qayd etgan variantlar ishlab chiqarishga joriy etiladi.*

**Kalit so‘z:** *urug‘lik, element, nav, hosildorlik, to‘qsonbosti, sabzi, duragay.*

**Annotation:** *In this article, we will develop ninety-five varieties and hybrids of Carrots and introduce them as high-yield varieties. In this case, options are planted in different planting methods, and special attention is paid to row spacing. The options with the highest score will be put into production.*

**Keywords:** *seed, element, variety, productivity, ninety-five, carrot, hybrid.*

**Аннотация:** *В этой статье мы выведем девяносто пять сортов и гибридов моркови и представим их как высокоурожайные сорта. При этом варианты сажают разными способами посадки, причем особое внимание уделяют междурядьям. Варианты с наибольшим количеством баллов будут запущены в производство.*

**Ключевые слова:** *семя, элемент, сорт, урожайность, девяносто пять, морковь, гибрид.*

### KIRISH

Inson uchun sabzavot, poliz, kartoshka maxsulotlarini yetarli ravishda ishlab chiqarish muhim ahamiyatga egadir. Aholi sabzavot, poliz, kartoshka mahsulotlari bilan ta‘minlashni keskin yaxshilash hamda uzluksizligini yaratish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Sabzavot mahsulotlarining qimmati va inson ovqatlanishdagi bebaho ahamiyati ularining tarkibidagi odam tanasining normal rivojlanishi va harakat qilishi uchun zarur bo‘lgan vitaminlar, fermentlar, oqsil moddalar, yog‘lar, uglevodlar va mineral tuzlar ko‘p miqdorda borligidadir.

Dehqonchilikda ishlar avvalo ekiladigan sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini tuproq turiga qarab joylashni rejalashtirishdan boshlanadi. Bunda ushbu ekinlarni biologik xususyatlarini inobatga olgan holda bajariladi. Sabzavot – poliz ekinlarini joylashtirishda, albatta ularni almashlab ekish ko‘zda tutilishi shart.

Sabzavot mahsulotlari tarkibidagi quruq moddalarning asosiy qismi uglevodlarga to‘g‘ri keladi. Uglevodlardan, glyukoza, fruktoza va saxaroza kabi eruvchan qand moddasi ko‘p uchraydi.

Sabzavot mahsulotlari tarkibida ko‘p miqdorda suv va uglevodlar bo‘lganligi sababli ularda chirituvchi mikroorganizmlar tez rivojlanadi. Ularning ko‘pchilik navi olis joylarga

tashishga va uzoq saqlashga yaramaydi. Shu sababli ularni qayta ishlashga (konservalashga) to'g'ri keladi. Qayta ishlash jarayonida albatta mahsulotlarning kimyoviy tarkibini ham hisobga olish lozim. Bu esa mahsulotning konservalashning qulay va uning sifatini uzoq vaqt buzmasdan saqlash imkonini beradigan usulini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi Sabzining to'qsonbosti nav va duragaylarini to'qsonbosti usulida yetishtirib ayrim elementlarini ishlab chiqish va yuqori hosil beradigan nav sifatida joriy qilishdan iborat. Bunda variantlar har xil ekish usullarida ekilib qator oralariga alohida e'tibor beriladi. Yuqori natija qayd etgan variantlar ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylarini o'sish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylarini ekish muddatlarini hosildorlikka ta'sirini o'rganish;

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi navlarini ekish sxemasi hamda urug' sarfini hosildorlikka ta'sirini o'rganish;

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylariga mulchalash usulini qo'llashning o'sish va rivojlanish fazalariga ta'sirini o'rganish;

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

Tadqiqotning ob'yekti To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylarini 3 ta nav va 3 ta yangi duragaylari, shuningdek, har xil sxemalarda ekish muddatlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Yangi introduksiya qilingan sabzining kolleksiya nav va duragaylarini Farg'ona viloyati iqlim sharoitida yetishtirish, xo'jalik-biologik xususiyatlari, o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi, pishish muddatlari, agrotexnikasi, mahsulot sifat ko'rsatkichlari, tashqi muhitning abiotik omillariga chidamliligi hamda yangi navlar ko'paytirish usuli va muddati hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylarini o'sish va rivojlanish bosqichlarini o'rganiladi;

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylarini ekish muddatlarini hosildorlikka ta'sirini Farg'ona viloyat sharoitida o'rganiladi;

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi navlarini ekish sxemasi hamda urug' sarfini hosildorlikka ta'sirini o'rganish;

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi nav va duragaylariga mulchalash usulini qo'llashning o'sish va rivojlanish fazalariga ta'sirini o'rganish;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sabzi o'simligining yangi kolleksiya navlariga morfobiologik va xo'jalik nuqtai nazardan baho berilganligi, ular orasidan yuqori hosildorligi, abiotik omillarga (issiqqa, qurg'oqchilikka va sovuqqa) chidamli navlarning ajratilganligi, sabzi navlarining ikki yillik to'pgulidan olingan urug'larni yig'ib olib tinim davri tugagandan so'ng ular orasidan yuqori hosil beradigan elita urug'larni ajratib olib ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Yangi istiqbolli va rayonlashtirilgan navlar iqtisodiy samaradorligi ilmiy asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sabzi navlari ertagi, o'rtagi va kechki guruhlariga ajratilgan holda, yuqori hosildor, abiotik omillarga chidamli, bo'lgan navlari fermer xo'jaliklari uchun tavsiya etilgan, ajratilgan istiqbolli sabzi navlarini ko'paytirish bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan, sabzi osimligini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun yuqori sifatli hosil olishni ta'minlovchi eng maqbul ekish usuli ishlab chiqilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

#### Kutilayotgan natijalar

To'qsonbosti sabzi nav va duragaylarida fenologik jarayonlarini o'tishi davrida navlar orasidagi farqlar ajratiladi ya'ni gullashi, pishishi, tinim davriga kirishi va vegetatsiya davridagi haroratning ta'siri aniqlanadi.

To'qsonbosti sabzi nav va duragaylarida ekish muddatlari va usullari o'rganilib maqbul usul va muddatlar ishlab chiqiladi hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar etiladi.

Sabzi navlari hosili, bargi va yerosti poyasi tarkibidagi kimyoviy tarkibi aniqlanadi.

Shuningdek sabzi navlari va ikki yillik poyalari o'sish dinamikasi o'rganilib navlarga qiyosiy baho beriladi.

Sabzi navlarining biologik xususiyatlari hamda issiqqa, qurg'oqchilikka, sovuqqa hamda kasallik va zararkunandalarga chidamliligiga baho beriladi.

Navlarning issiqqa, qurg'oqchilikka va sovuqqa chidamliligi va ularga ta'sir qiluvchi omillarning hamda navlarning issiqqa va qurg'oqchilikka chidamliligi barg va yerosti poyalarga o'zaro bog'liqligi aniqlanadi.

To'qsonbosti sabzi nav va duragaylarini tashqi noqulay sharoitlariga chidamliligi bo'yicha birlamchi manbalar ajratiladi va selektsiyasida yangi issiqqa, qurg'oqchilikka va sovuqqa chidamli navlarini yaratishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining respublikada sabzavot yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish to'g'risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704-son qarori.

2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo'jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik. Navro'z.-Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet

3. Ostonaqulov. O'zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro'z.-Toshkent: 2020- 324 bet

4. Ostonaqulov T.E. Meva-poliz va poliz mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi (leksiyalar kursi). Samarqand, 2006

5. Nahalboyev, Ostonaqulov T.E. Meva-poliz va poliz mahsulotlarini yetishtirish.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO ‘SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO ‘SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO ‘SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO ‘SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO ‘SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO ‘SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO ‘SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.